

BUXORO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlash-tirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar oyida, birlikda)



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

6



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **35,4** foizga oshdi



■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik,
chovachilik, ovchilik va bu
sohalarda xizmat ko'rsatish
■ O'rmon xo'jaligi
■ Baliq xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

7



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 4 432 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,6 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 123,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,9 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 107,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,0 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 100,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 159,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,4** foizga oshdi




Kichik tadbirdorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

9



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

641



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

20



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

12



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



378

yashash bo'yicha xizmatlar



1 922

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 2 300 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,1 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 127,4 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 83,4 %), yashash bo'yicha xizmatlarning- 104,1 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 16,4 %) o'sishidir.


Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 3 100 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 126 taga yoki 157,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 891 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 024 taga yoki 154,8 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 62 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19 taga yoki 144,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra 307 tani tashkil etib, ulardan 298 tasi yoki 97,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 18 taga yoki 106,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida viloyatimizda 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar oyida, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

14



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2021- yil	2021- yil
Jami	81	95	166	279	298
shu jumladan:					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1	2	13	18	28
Sanoat	59	63	82	119	122
Qurilish	2	5	8	30	29
Savdo	9	10	30	59	65
Tashish va saqlash	2	0	2	6	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6	6	13	21	22
Axborot va aloqa	0	1	0	1	1
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	2	5	6
Boshqa turlar	1	7	16	20	20

**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


15

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Viloyat bo'yicha	298	148	150
Buxoro shahar	150	65	85
Kogon shahar	14	10	4
tumanlar:			
Olot	7	-	7
Buxoro	13	10	3
Vobkent	5	3	2
G'ijduvon	12	8	4
Kogon	26	18	8
Qorako'l	7	3	4
Qorovulbozor	9	4	5
Peshku	19	8	11
Romitan	12	5	7
Jondor	14	9	5
Shofirkon	10	6	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Buxoro shahrida 150 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 50,3 %), Kogon tumani 26 ta (8,7 %), Peshku tumani 19 tani (6,4 %), Kogon shahar 14 ta (4,7 %), Buxoro tumani 13 ta (4,4 %), hamda Jondor tumanlarida 14 tani (4,7 %) tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**
(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)

16




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

17




2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Buxoro shahri (29,4 %), G'ijduvon(10,8 %), Romitan(8,1%), Buxoro (7,8 %), Jondor (6,3 %), Peshku (6,2 %), Shofirkon(6,4 %), Kogon (5,4 %), Qorako'l (5,2 %), Vobkent (4,9 %), Kogon shahar (4,3 %), Olot (3,4 %), Qorovulbozor (2,2 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.


Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar oyida, birlikda)

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Buxoro shahri (25,6 %), G'ijduvon(11,5 %), Buxoro (8,7 %), Romitan (9,1 %), Peshku (8,0 %), Kogon (5,2 %), Jondor (8,2 %), Vobkent (5,2 %), Shofirkon (3,4 %), Qorako'l (3,2 %), Olot (6,8 %), Qorovulbozor (2,2 %) tumanlari va Kogon shahar (3,0 %), ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar kesimidagi soni (2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Buxoro shahri (30,1 %), G'ijduvon(10,5%), Romitan (8,6 %), Buxoro (8,1 %), Jondor (6,6 %), Peshku (6,0 %), Shofirkon (5,7 %), Kogon (5,4 %), Vobkent (4,9 %), Qorako'l (4,8 %), Kogon shahar (4,1 %), Olot (3,0 %), Qorovulbozor (2,3 %) tumani hissalariga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2021- yilning yanvar oyida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqt bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot displays the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. The top navigation bar includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. A search bar for 'Qidirish' is also present. The main content area features a sidebar titled 'RASMIY STATISTIKA' with links to various statistical reports. A central panel shows a dropdown menu for 'Xizmatlar ro'yxati' (List of services) with options like 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxona pasporti'. To the right, there is a column titled 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' containing links to various documents and reports.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Buxoro viloyati
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: (65) 223-83-20